XALQ DEPUTATLARI QARSHI SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 17-aprel VII-8-54-4-69-K/25 Qarshi shahar

Qarshi shahridagi geografik obyektlarga nom berish va ayrimlarini qayta nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2024-yil 26-noyabrdagi 05-19-01-5478-sonli yig‘ilish bayoni va ekspert xulosasini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Qarshi shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2024-yil 26-noyabrdagi 05-19-01-5478-sonli yig‘ilish bayoni va ekspert xulosasi ijro uchun qabul qilinsin.

2. Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2024-yil 26-noyabrdagi 05-19-01-5478-sonli yig‘ilish bayoni va ekspert xulosasiga ko‘ra, Qarshi shahridagi 14 ta geografik obyektni nomlash bo‘yicha ekspert xulosalaridan 12 tasi inobatga olinsin va nomlash ilovaga muvofiq amalga oshirilsin.

3. Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasi tomonidan Qarluqxona mfy hududidagi bog` va Darvozatutak MFY hududidagi (qadimiy Odina masjidi oldidagi) xiyobonga tavsiya qilingan nomlar maqullanmagani inobatga olinsin hamda qayta nomlashga takliflarni belgilangan tartibda rasmiylashtirib, vakolatli organlarga yuborish Qarshi shahar hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi (O.Tasheva) zimmasiga yuklatilsin

4. Qarshi shahar hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi (O.Tasheva), shahar statistika bo‘limi (B.Cho‘lliyev), Kadastr agentligi davlat kadastrlari palatasi Qarshi shahar bo‘limi boshlig‘i (H.Azimov), shahar qurilish bo‘limi (J.G‘aniyev) va boshqa tegishli mutasaddi davlat organlari bilan birgalikda yangi nomlangan obyektlarni yangi nomi bo‘yicha davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va ish yuritish xujjatlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsinlar.

5. Qarshi shahar Adliya bo‘limining 2025-yil 28-yanvardagi 26-7/7-sonli taqdimnomasiga asosan xalq deputatlari Qarshi shahar Kengashining 2025-yil 14-yanvardagi VII-5-2-4-69-K/25-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6. Mazkur qaror ijrosining nazorati Qarshi shahar hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlari bo‘yicha o‘rinbosari (J.Egamberdiyev) va xalq deputatlari Qarshi shahar Kengashi Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiya (N.Farmonov) zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi



XOLBOYEV
NORMUMIN
YAXSHIYEVICH

Xalq deputatlari Qarshi shahar
Kengashining
2025-yil 17-apreldagi
VII-8-54-4-69-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Qarshi shahridagi nomlanadigan Geografik obektlar RO‘YXATI

t. r	Geografik obyekt	Manzili	Amaldagi nomi	Tavsiya etiladigan nom	Izox
Istirohat bog`i					
1	Qarshi shahri markazida joylashgan istiroxat bog`i xalq tilida A.Navoiy nomli bog` deyiladi	Geolog MFY	Nomsiz	1. A.Navoiy 2. Yoshlar bog`i 3. Osiyo	Ushbu berilgan takliflardan “Yoshlar bog`i” nomi tavsiya qilinadi
2	Qarshi shahri markazidagi istiroxat bog`i bilan yonma yon, bolalar uchun o`yingohlari mavjud bog`. Xalq tilida ASI park	Geolog MFY	Nomsiz	1.Osiyo 2.Yoshlar bog`i 3. Istirohat	Ushbu berilgan takliflardan “Osiyo” nomi tavsiya qilinadi
Ziyoratgoh					
1	Xo`ja Ubayda ibn al -Jarroh	Gulshan MFY	Abu Ubayda ibn Al Jarroh	Abu Ubayda ibn al- Jarroh(Ushbu tarixiy shaxs hoki qo`yilgan ramziy qabri mavjud)	Ushbu berilgan takliflardan “Abu Ubayda ibn al-Jarroh” nomi tavsiya qilinadi
Xiyobonlar					
1	Qashqadaryo daryosi sohilida	Roguzar MFY	Nomsiz	1. Qashqadaryo sohili 2. Sohilbo`yi 3. Osiyo	Ushbu berilgan takliflardan “Sohilbo`yi” nomi tavsiya qilinadi
2	Atlas savdo majmuasi oldida	Amir Temur MFY	Nomsiz	1.Navro`z 2.Atlas 3. Sharq	Ushbu berilgan takliflardan “Navro`z” nomi tavsiya qilinadi
3	Bosh pochta oldida	Mustaqillik MFY	Nomsiz	1. Saylgoh 2. Obod Vatan 3.Osiyo	Ushbu berilgan takliflardan “Osiyo” nomi tavsiya qilinadi
4	Agora bozori oldida (Qarshi-Beshkent) ko`prigi o`ng va chap tomoni	Qarshi MFY	Nomsiz	1. Yashil maskan 2. Yashil sayilgoh 3.Osiyo	Ushbu berilgan takliflardan “Yashilmakon” nomi tavsiya qilinadi
5	Motamsaro ona haykali oldida	Geolog MFY	Nomsiz	1. Xotira xiyoboni 2. Motamsaro ona xiyoboni 3.Sokinlik	Ushbu berilgan takliflardan “Xotira” nomi tavsiya qilinadi

6	Teatr oldida	Geolog MFY	Nomsiz	1. Teatr xiyoboni 2. Sayrgox. 3. Osiyo	Ushbu berilgan takliflardan “Teatr” nomi tavsiya qilinadi
7	Temir yo`l vokzali oldida	Nahshab MFY	Nomsiz	1. Qarshi darvozasi 2. Obod 3. Osiyo	Ushbu berilgan takliflardan “Qarshi darvoza” nomi tavsiya qilinadi
Maydonlar					
1	A.Oripov haykali oldida	Tabassum MFY	A.Oripov	1. A.Oripov Bu maydonda aynan shu shaxs haykali bo`lgani uchun shu nomda atalishi maqsadga muvofiqdir.	Ushbu berilgan takliflardan “Abdulla Oripov” nomi tavsiya qilinadi
2	I.Karimov haykali oldida	Geolog MFY	I.Karimov	1. I.Karimov Bu maydonda aynan shu shaxs haykali bo`lgani uchun shu nomda atalishi maqsadga muvofiqdir.	Ushbu berilgan takliflardan “Islom Karimov” nomi tavsiya qilinadi